

Oriental Journal of Education



ORGANIZING SCHOOL EDUCATION ACTIVITIES BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH

Dildora Mashrabjonovna Khakimova*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**Head of the Department of "Methodology of Social and Applied Sciences"**National Institute of Pedagogical Excellence named after A. Avloniy**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: innovation, approach, activity, educational reforms, humanization, school education, independent learning, student.

Received: 26.08.25**Accepted:** 28.08.25**Published:** 01.08.25

Abstract: This article describes the methods and functions of organizing school education based on an innovative approach.

Changes in the field of education in Uzbekistan in recent years are associated not only with the formation of knowledge, skills and qualifications of students in modern conditions, but also with the implementation of the idea of humanizing education in schools, along with the development of creative interests and abilities of each student. Teaching should be carried out using strategies aimed at activating independent learning activities and advanced educational technologies.

MAKTAB TA'LIMI FAOLIYATINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

Dildora Mashrabjonovna Xakimova*"Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi" kafedrası mudiri, p.f.d. (DSc) dotsent**A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: innovatsiya, yondashuv, faoliyat, ta'lim islohotlari, insonparvarlashtirish, maktab ta'limi, mustaqil ta'lim, o'quvchi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'limi faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish usullari va funktsiyalari tavsiflangan.

So'nggi yillarda O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi o'zgarishlar nafaqat zamonaviy sharoitda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan, balki maktabda har bir o'quvchining ijodiy qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birgalikda

ta'limni insonparvarlashtirish g'oyasini amalga oshirish bilan ham bog'liq. O'qitish mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirishga qaratilgan strategiyalar va ilg'or ta'lim texnologiyalari yordamida amalga oshirilishi zarur.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ СТУДЕНТАМ

Дильдора Машрабжоновна Хакимова

Доктор педагогических наук (DSc), доцент

Заведующая кафедрой «Методика социальных и прикладных наук»

Национальный институт педагогического мастерства имени А. Авлония

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: инновация, подход, деятельность, образовательные реформы, гуманизация, школьное образование, самостоятельное обучение, ученик.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы и функции организации школьного образования на основе инновационного подхода.

Изменения в сфере образования в Узбекистане в последние годы связаны не только с формированием знаний, навыков и квалификаций учащихся в современных условиях, но и с реализацией идеи гуманизации образования в школах, развитием творческих интересов и способностей каждого ученика. Обучение должно осуществляться с использованием стратегий, направленных на активизацию самостоятельной учебной деятельности, и передовых образовательных технологий.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligini e'tirof etilgan. "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni... aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi" [1] deya ta'kidlab o'tgan.

Bugungi kunda jahon taraqqiyoti informatsion-innovatsion davrni kechmoqda. Bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi - bu ilmiy yutuqlar, yangi texnologiyalarni jadal o'zlashtirish va samarali boshqarishga asoslanadigan o'zgarishlardir. Shuningdek, maktab ta'limi faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish bugunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar inson faoliyatining barcha jabhalarida, jumladan, ta'limda ham qo'llaniladi. Vaqt o'tishi va turmush tarzidagi o'zgarishlar innovatsiyalarni amalga oshirish

zarurligini taqozo etmoqda. Innovatsiyalarni amalga oshirish rejali va puxta tahlil qilish asosida tashkil etiladigan jarayondir.

Pedagogika fanida innovatsion faoliyat deganda o'qituvchilarning yanada yaxshi natijalarga erishish, yangi bilimlarga ega bo'lish va o'qitishning innovatsion usullarini joriy etish maqsadida ta'lim jarayonlarini taqqoslash, o'rganish, o'zgartirish va takomillashtirish orqali o'z ta'lim tajribasini tushunishga asoslangan maqsadli faoliyati tushuniladi [2].

Innovatsion ta'lim muassasalari deganda o'qitish va boshqarishning yangi modellari talab qilinadigan, o'qitish va ta'limning innovatsion texnologiyalari ishlab chiqilayotgan, o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirishning mazmuni va zamonaviy shakllari takomillashtirilayotgan ta'lim muassasalari tushuniladi.

Ta'lim tashkilotining innovatsiyalarni qabul qilish samaradorligini oshirishning asosiy omili innovatsion loyiha texnologiyasiga rioya qilishdir.

Bir qator ilmiy manbalarni tahlil qilish hamda amaliy tajribalarni kuzatish asosida maktab ta'limi muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish usullari va uning funksiyalari haqida fikr yuritishga, zamonaviy maktabda innovatsion jarayonlarning ichki tashkil etilishini, shuningdek, faoliyat ishtirokchilarining yo'nalishi va harakat usullarini aks ettirishga harakat qildik.

Eng avvalo innovatsiyalarni olib kirishda diagnostika, muammolar va qarama-qarshiliklarni hal qilishga imkon beradigan innovatsiyalarni izlash, barcha subyektlarning innovatsiyalarga munosabatini aniqlash, bu haqda fikrlarni to'plash, innovatsiyalardan foydalanish va rivojlanish to'g'risida qaror qabul qilish ta'lim muassasasida innovatsiyalardan foydalanishda amalga oshiriladigan axborot-tahlil funksiyasiga birlashtirilishi zarur.

Ushbu funktsiya o'z ichiga quyidagilarni oladi [3]:

- ta'lim muassasasidagi ijtimoiy muhitni o'rganish va tahlil qilish;
- mijozlarning ta'lim ehtiyojlarini tahlil qilish;
- jamiyatda va shunga mos ravishda ijtimoiy buyurtmada mumkin bo'lgan, ehtimoliy o'zgarishlarni prognoz qilish;
- barcha faoliyat subyektlari yutuqlarini, ularning salohiyatini, erishilgan faoliyat darajasini tahlil qilish;
- muammolarni, kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish, umumiy intilishlarni, ko'rsatmalarni, tashkilot faoliyati va boshqaruv tizimining maqsadlarini tanlash;
- ilmiy-uslubiy ta'minot yo'nalishi bo'yicha ma'lum ishlar;
- qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, innovatsiyalardan foydalanish orqali ularning yechimini topish va h.k. Shu bilan birga, ayrim innovatsiyalardan foydalanishni yanada kuchli va mustahkam tahliliy, diagnostik va prognostik asoslash tendentsiyasi kuchaymoqda. Odatiy tahlil tadqiqot, diagnostika tizimi bilan almashtiriladi.

Boshqaruvning axborot va tahlil funktsiyalarini amalga oshirish mahsuli maktab faoliyatini tahlil qilish va o'qitishning innovatsion modelini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

O'qitishning innovatsion modeli - bu o'qitishning o'quvchiga qanday o'rganishni o'rgatish jarayoni bo'lib, o'qituvchining roli yo'naltiruvchi sifatida taqdim etiladi, o'quvchining roli asosan faol bo'lishdan iborat.

Ta'limning ushbu modelida bilimlarni taqdim etish shakllari xilma-xil va asosan ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, tarbiyaviy ishning jamoaviy va guruh shakllaridan ham keng foydalaniladi. O'qitishda bilimlarni hayotiy vaziyatlarda amaliy foydalanishga qaratilgan. Ushbu o'qitish modeli o'quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan ijodiy izlanishlar bilan bog'liq.

Innovatsion o'qitish modelining afzalliklaridan biri o'qitishning o'quvchilarda yuqori darajadagi shaxsiy motivatsiyani, nostandart fikrlashni, mas'uliyatni, tashabbuskorlikni, ularning atrofida sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabatini shakllantirishga qaratilganligidadir. Innovatsion va ilg'or usullardan foydalangan holda o'qitish mustaqillik, ijodkorlik, samarali va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, o'quv materialini yanada qiziqarli va qulay qiladi [4].

Shunday qilib, ta'lim tizimini isloh qilish zarurligini anglash amalda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shishning muqarrarligiga olib keladi, chunki hayot ta'lim muassasalari oldiga yangicha vazifalarni qo'yadi, ularni eskicha ishlash bilan hal qilib bo'lmaydi. Shu sababli, ta'lim jarayoni sifatini oshirish sharoitida zamonaviy maktab innovatsiyalarni amalga oshirishning aniq ishlab chiqilgan modeliga ega bo'lishi darkor.

Zamonaviy maktabda innovatsiyalar, birinchi navbatda, o'qituvchilar jamoasining innovatsion faoliyati natijasi bo'lib, muhim ijobiy yangiliklar (uslubiy, texnologiya, dastur) yaratishga hissa qo'shadi va faqat amaliy faoliyatdagina yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. 24.07.2020-yil O'RQ-630-son.
- 2.Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент: Учебник. — СПб: Питер, 2017. — 412 с.
- 3.Субботина Т.Н., Маркина Н.В. Реализация инновационных технологий в образовательной организации // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2023. — № 2. — С. 15–19.
- 4.Факторович А.А. Педагогические технологии: учебное пособие. — М.: Изд-во Юрайт, 2019. — 128 с.

5.Дилдора Машрабжонова Хакимова Ўқувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини такомиллаштириш модели \\\ Современное образование (Узбекистан). – 2018. №7. б. 22-28.

6.D.Xakimova Innovatsiya va innovatsion salohiyatning pedagogik ahamiyati. \\\ Ta'lim maydoni tendensiyalari: kompetentsiyalar, innovatsiyalar va texnologiyalar mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. 2025. – б. 204-208.